

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

NURMAMATOVA SARVINOZ QURBON QIZI

**11-12-YOSHLI FIGURALI UCHUVCHILARNING KOORDINATSION
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashadirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Pedagogical science**

Nurmamatova Sarvinoz Qurbon qizi

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi.....	5
-------------------------------------------------------------------------------------------------------	---

Нурматова Сарвиноз Курбановна

Эффективность развития координационных способностей фигуристов 11-12 лет.	30
-----------------------------------------------------------------------------------	----

Nurmamatova Sarvinoz Kurbanovna

Effectiveness of development of coordination ability of 11-12 years old figure skaters.....	59
------------------------------------------------------------------------------------------------	----

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ List of published works.....	63
-------------------------------------------------------------	----

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

NURMAMATOVA SARVINOZ QURBON QIZI

**11-12-YOSHLI FIGURALI UCHUVCHILARNING KOORDINATSION
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6764 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasining www.uzdjtsu.uz va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musayev Bahrom Baxtiyarovich

Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Karimov Xojiakbar Axtamqulovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil “___” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy). Tel:(0-370)717-17-79, 717-27-27, faks (0-370)717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Madaniyat saroyi 3 qavat konferensiylar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy). Tel: (0-370) 717-17-79, 71727-27, faks (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” ____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” ____ da ____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

p.f.d., professor

X.X.Qurbanov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi,

p.f.b.f.d (PhD)

O.J.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash qoshidagi ilmiy seminar

rais: p.f.d., (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida sog‘lom avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda aholi salomatligini yaxshilash masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar inson organizmini tashqi muhitda bo‘layotgan o‘zgarishlarga tayyorlash bilan bir qatorda, uning immunitet tizimini mustahkamlash uchun aholining barcha qatlamlarini, xususan yosh sportchilarni jismoniy harakatga bo‘lgan faolligini oshirish talabini qo‘ymoqda. Shu maqsadda, jahon ta’lim tizimida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tabaqlashtirish va individuallashtirish kabi yondashuvlardan foydalanishning ahamiyatini oshirish yo‘llarini aniqlash bilan bog‘liq umumiy muammolarni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy ishlar asosida yosh sportchilarning, jumladan figurali uchish bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi amaliyotida bir qator yangi vosita va usullar qo‘llanilib kelmoqda.

Jahonning qishki sport turlari rivojlangan mamlakatlaridagi sport mакtablarida tarbiyalanayotgan figurali uchish bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning o‘quvtrenirovka jarayonini innovatsion ta’lim texnologiyalarini tashkil etuvchi ba’zi komponentlarni, ularning jismoniy tayyorgarligini hisobga oлган holda tashkil etish va nazorat qilish yuzasidan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va jadalligi yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan. Turli yoshdagi figurali uchuvchilarning musobaqa jarayonida yuqori natijalarga erishishlarini ko‘zlagan holda, musobaqa va mashg‘ulotni bir-biriga muvofiq bo‘lishini ta’minlash uchun yillik tayyorgarlik jarayonini variativ holda takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni, xususan, olimpiya sport turlari bilan bir qatorda, qishki sport turlarini ham rivojlantirish va ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilgan va keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. “Qishki sport turlari bo‘yicha qobiliyatli yosh sportchilarni aniqlash, ular orasidan xalqaro sport maydonida munosib kurash olib bora oladiganlarni saralab olish, yosh figurali uchuvchilarni professional sportchilar qilib tayyorlash”¹ ga katta ahamiyat qaratilmoqda hamda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy figurali uchishda bajariladigan texnik elementlarga qo‘yiladigan talablarni keskin ortishi mutaxassislar va murabbiylar tomonidan figurali uchuvchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda sifat jihatidan yangi, samarali usullarini qo‘llash zaruratini ilgari suradi. Shu tufayli, 11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning o‘quv-mashg‘uloti jarayonida asosiy vaqtning 20-30 daqiqasida koordinatsiyaga qaratilgan mashqlarga moslashish, nazorat me’yorlarini yangi anjomlar asosida olib borishni kiritish, tayyorgarlik va musobaqa davrlarida trenajyorlardan foydalangan holda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4583-sonli Qarori 2020-yil 4-fevral. www.Lex.uz.B 23-25.

mashg‘ulotlarni tashkil etish metodologiyasini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 4-fevraldagи PQ-4583-sonli “Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 1-iyuldagи PQ-303-sonli “2026-yil Milan va Kortino (Italiya) shaharlarida bo‘lib o‘tadigan XXV-qishki olimpiya va XIV-paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi Qarorlarida hamda sohaga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari L.Z.Xolmurodov, M.R.Yo‘ldoshov, S.Q.Adilov, S.S.Tajibayev, L.P.Matveyev, R.S.Salomov, F.A.Kerimovlar tomonidan olib borilgan ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlarda sportchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish va takomillashtirish, maxsus jismoniy mashqlar orqali oquvchi yoshlarning, yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyatini takomillashtirish va paralimpiya sport turlariga tayyorlashning metodologik asoslarida yuklamalar taqsimoti, jismoniy mashqlarning organizmga ta’siri, mashg‘ulot yuklamalari va yuklamalar orasidagi dam olishlar o‘rtasidagi tizimli aloqa, yuklamalar ketma-ketligini aniqlashda asos bo‘ladigan omillar to‘g‘risidagi manbaalarni kengaytirish masalalari o‘rganilgan. Qishki sport turlari bo‘yicha kafedra olimlari S.R.Davlelmuratov, G.R.Asatova, A.A.Karimov, Sh.S.Xoziyev, I.B.Jo‘rayev, S.V.Fedorovalar olib borilgan izlanishlarda, muz ustida to‘g‘ri harakatlanish, sportchilarda jismoniy sifatlarni va texnikani rivojlantirish, bazaviy harakatlarni o‘rgatish muammolari yuzasidan, D.D.Safarova, L.D.Seydaliyeva, Y.M.Sultonovalar tomonidan vestibulyar apparatining sensetiv davrlarini aniqlash insonning miya faoliyati bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda, sport turiga qarab moslashish lozimligi, aks holda beriladigan yuklamalar organizmga teskari ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi o‘rganilgan.²

² Л.З.Холмуродов, Махсус жисмоний машклар орқали мактабгача ёшдаги болаларнинг координатсион қобилиятини ривожлантириш. автореф.дисс.PhD.-чирчик-2019. Б.7-9. М.Р.Йўлдошов, ёш футболчи кизларнинг координатсион

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining olimlari I.Yu.Gorskaya, I.A.Siyangulova, V.N.Platonov, O.N.Urlova, V.I.Lyax, S.P.Kandiba, A.N.Mishin, E.F.Kapshanov, K.S.Dunayev, I.O.Cherepanovalar tomonidan olib borilgan ilmiynazariy izlanishlarda figurali uchish sport turini rivojlantirish hamda sortchilarni yirik xalqaro musobaqalarga tayyorlashning muhim muammolari, ushbu sport turini shakllantirish, texnik harakatlarni o'rgatish va mashg'ulot jarayonini tuzish hamda amaliyotga qo'llash yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan.³

Xorijiy olimlar Novak.M, Rouvali.T, Paul.E.G., Milton B.M, Vescovi.J.D, VanHeest. J.L.Varbanov.I, Brestnichki.G lar tomonidan har xil yoshdagi figurali uchuvchi sportchilarning koordinatsion qobiliyatini mashg'ulot va musobaqa jarayonida rivojlantirish, koordinatsion qobiliyatning muhim tarkibiy qismlari haqida chuqur tushunchalarni shakllantirish, figurali uchish elementlarni bajarishda koordinatsion qobiliyatning ahamiyati va uni aniqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlari natijasida yangi vosita va usullar ishlab chiqilgan.⁴

Shu bilan birga, 11-12-yoshli figurali uchish bilan shug'ullanadigan sportchilarning mashg'ulot va musobaqa jarayonida koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy trenajyor uskunalaridan foydalanish, mashqlarni ma'lum bir dastur asosida tayyorgarlik bosqichlariga mos ravishda tanlash va taqsimlash holatlari yetarlicha o'rganilmagan. Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha

кобилияларини ривожлантириш усулиятини такомиллаштириш: автореф.дисс. PhD.-чирчик-2019, Б.12-30. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти/ ТОШКЕНТ- 2005. Б 337-35. Саломов Р.С. Спорт машгулотининг назарий асослари / ўкув қўлланма //Тошкент-2005. Б 87-120. Д.Д.Сафарова, Л.Д.Сейдалиева, Й.М.Султонова, Ёшга оид физиология дарслик. Тошкент-2018.Б-23-24. Матвеев Л.П. Теория и методик физической культуры/ Л.П. Матвеев. - М.: ФиС // учебник, Москва-2021. 350 с. С.Р.Давлетмуратов, Г.Р.Асатова, А.А.Каримов, Ш.С.Хожиев, И.Б.Жураев, «Зимние виды спорта» // Учебник. TASHKENT “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU,2021. С.230-291. С.Қ.Адилов, “еркин кураш спортчиларининг координатсион қобилияларини ривожлантириш ва техник-тактик харакатлари самарадорлигини ошириш технологияси” 2022. Б.11-12. С.В.Федорова Теория и методика фигурного катания/С.В.Федорова. Учебное пособие-Ташкент, «O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI» MIU, 2022. С.35-48. С.С.Тажибаев, “Турли ёшдаги спортчиларни тайёрлашда харакатли ўйинлар методологияси” 24.01. 2024. Б.3-5.

³ И.Ю.Горская, И.А.Суянгулова, Базовые координационные способности школьников с различным уровнем здоровья / И.Ю.Горская. — Омск, Сиб. ГАФК, 2000. 221 с. В.Н.Платонов, Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте – Киев: Олимпийская лит, 2002. 134 с. О.Н.Урлова, Развитие специальных координационных способностей у юных фигуристов на этапе предварительной подготовки: автореф.канд.пед.наук: Урлова Оксана Николаевна. – Хабаровск, 2004. 24 с. Лях В.И. Координационные способности: диагностика и развитие.-М.: ТВТ Дивизион, 2006. 290 с. Кандыба С.П. Планирование спортивной подготовки фигуристов в годичном цикле / С.П. Кандыба, 3.О. Симбирская // Детский тренер. 2014. С 38-48. А.Н.Мишин, Фигурки катание как космический полет/А.Н. Мишин.М.:ФиС. 2015. 144 с. Капшанов Э.Ф. Исследование уровня вестибулярной устойчивости и координационных способностей летного состава / Э.Ф. Капшанов, В.Л. Пашути // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта, 2017. С 96-101. К.С.Дунаев, Оценка координационной подготовленности и вестибулярной устойчивости фигуристов по результатам функциональных проб/ К.С.Дунаев, И.О.Черепанова, С.А.Ярушин // Физическая культура. Спорт. Туризм. Двигательная рекреация. 2020. С.69-70. И.О.Черепанова, “методика развития координационных способностей фигуристов на тренировочном этапе подготовки” Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Малаховка-2022. С.85-97.

⁴ Novak.M., Development of Speed-coordination ability in high-level football.-2008. P 38-57. Rouvali.T., Motor coordination test as an indicator for skating performance in ice hockey for pre-puberty children. 2015. P 13-18. Paul.E.G., Milton B.M., Neuro-muscular coordination versus reading ability. -Finland., reprint. 2017. P 270-281. Vescovi.J.D., VanHeest. J.L. The Science of Figure Skating. Routledge. - New York, NY,USA. 2018. P 8-9. Varbanov. I., Brestnichki.G. study of coordination abilities and their relationship to anticipation in athletes. – ISCASS. 2022. P 29-33.

musobaqa dasturida belgilangan murakkab koordinatsion elementlarni rivojlantiruvchi mashqlar va aniq me'yorlar ishlab chiqilmagan, bunda sportchilarning yosh darajalari hisobga olinmagan. 11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarni vestibulyar apparatini rivojlantirishga, koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi vositalar bo'yicha ilmiy tavsiyalar to'liq yoritib berilmagan. Mazkur holatlar dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va ilmiy tadqiqotlar institutining 2021-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari konsepsiysi va istiqbol rejasidagi "11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quv-mashg'ulot bosqichida 11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish orqali musobaqa dasturi elementlarini yuqori darajada bajarilishiga erishish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning koordinatsion qobiliyatini aniqlashga qaratilgan test me'yorlarini aniqlash va nazorat mashqlarini ishlab chiqish;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarda umumiyligini qabul qilingan sakrab aylanish elementlarini dastlabki bajarishda yo'l qo'yiladigan texnik xatoliklarni aniqlash;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning yillik o'quv-mashg'ulot yuklamalaridagi koordinatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar taqsimotini ishlab chiqish va tartiblashtirish;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishda maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish va takomillashtirish.

Tadqiqot obekti sifatida sportning qishki va murakkab-texnik sport turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining 11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarining mashg'ulot va musobaqa jarayonlari olingan.

Tadqiqot predmeti o'quv-mashg'ulot bosqichidagi figurali uchuvchi sportchilar uchun olib boriladigan mashg'ulot va musobaqalardagi maxsus koordinatsion mashqlar majmui va uni qo'llash uslubiyati tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini oshirish uchun muvozanat saqlashdagi aylanish tezligini mazkur harakatni bajarish uchun ajratilgan vaqt va urinishlar sonini oshirish orqali rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab

chiqish natijasida Libela, Valchok, Zaklon, Bilman kompleks aylanishlar kabi murakkab texnik elementlarni bajarish imkoniyati kengaytirilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish uchun sakrab aylanish elementlarini bajarishda uchishdagi depsinish va qo‘nishdagi oyoqning tushish burchagidagi xatoliklarni belgilangan qo‘nish fazasining gradusidan og‘ishini aniqlash hisobiga mashg‘ulot va musobaqaga tayyorgarlik jarayonining variativ rejalashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning mashg‘ulotidagi yuklamalarni tartiblash maqsadida ishlab chiqilgan yillik koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan soatlar taqsimoti yordamida musobaqa jarayonidagi texnik harakatlarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish maqsadida xoreografik, maxsus texnik, muzda va jismoniy tayyorgarlik vositalarini tayanch harakat apparatiga kuchli ta’sir etuvchi vositalarni o‘zida mujassamlashtirgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish hisobiga sensetiv davrdagi shug‘ullanuvchilarni mashg‘ulot va musobaqaga tayyorlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

Ishning amaliy natijalari:

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning aylanish va sakrab aylanish elementlarini mashg‘ulot va musobaqa jarayonida bajarish sifatini oshirish maqsadida colour circle nazorat mashqlari ishlab chiqilib, “Trenajyor mishin nusxasi” yordamida murakkab aylanish elementlarini bajarilish darajasi takomillashtirilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning individual tayyorgarliklari xususiyatlariga asoslangan mashg‘ulot metodikasiga va tayyorgarlik jarayonini rejalashtirishiga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning yillik tayyorgarlik dinamikasini tahlil qilish orqali, ularning koordinatsion qobiliyati darajasini aniqlash hamda tayyorgarlik turlariga yo‘naltirilgan yuklamalar samaradorligini baholash shkalasi ishlab chiqilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning musobaqa dastur elementlarini aniq bajarishga erishishni maksimal darajada ta’minlaydigan asosiy harakat faoliyati va koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar majmualari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida qo‘llanilgan yondashuv, qishki sport turlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi mahalliy hamda chet el olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot uslublarini qo‘llanilganligi, tahlil va tadqiqot vazifasini miqdoriy va sifat jihatdan ta’minlanganligi, tajriba sinov ishlarini reprezentivligi hamda olingan natijalarni matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati shundan iboratki, figurali uchish bo‘yicha sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati, xususan, tayyorgarlik bosqichida figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha bilimlarni to‘ldirish va kengaytirish imkonini berdi. Tadqiqot natijasida olingan materiallar figurali uchuvchilarni koordinatsion qobiliyatini takomillashtirishning istiqbolli jihatlarini belgilab berishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sifatida o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi 11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish uslubiyati, uni mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshirish shartlarini ishlab chiqish va uning samarali qo‘llanilishini baholash imkonini bergenligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishlab chiqilgan maxsus koordinatsion mashqlar majmui va unda foydalanilgan “trenajyor” anjomlari yordamida olingan natijalar asosida:

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning muvozanatini aniqlash maqsadida “Colour circle” nomli nazorat mashqlarini amaliyatda qo‘llash hamda “Mishin trenajyori nusxasidan” foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar “O‘quv mashg‘ulot bosqichida mashg‘ulotlarni tashkil etish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 9-yanvardagi 9-I/Ch-sonli buyrug‘iga asosan O‘Q-0000123 raqamli guvohnamasi.) Natijada, 11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarni aylanani ijro qilish bo‘yicha murakkab texnika elementlarini ijro qilishi 26,57% ga yaxshilangan;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarni sakrab aylanish elementlarini bajarishda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni aniqlash uchun “ForcePlaceSmart”Platform labaratoriya apparatidan foydalanib, imitatsion harakatlar ko‘p va koordinatsion rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kam qo‘llanilganini aniqlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Sportning qishki va murakkab texnik sport turlari bo‘yicha Respublika Oliy sport mahorati makkabini figurali uchish bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilarining mashg‘ulot va musobaqa jarayoniga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 23-apreldagi 03-16/4039-son Ma’lumotnomasi). Natijada, musobaqa dastur elementlarini variativ rejlashtirish imkoniyati kengaytirilgan va sakrab 180° ga aylanish mashqini ijro qilish – 19,11%ga, sakrab 360° ga aylanish – 21,29%ga, sakrab 540° ga aylanish mashqini ijro qilish – 21,68%ga yaxshilangan;

o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi 11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarni raqobatlashish imkoniyatlarini oshirish uchun yillik yuklama me’yorlarini soatlarda ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar “O‘quv-mashq bosqichida mashg‘ulotlarni tashkil etish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 9-yanvrdagi 9-I/Ch-sonli buyrug‘iga asosan O‘Q-0000123 raqamli guvohnomasi.) Natijada, musobaqalarda figurali uchuvchi sportchilarni bellashish imkoniyati kengaytirilgan va musobaqa jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar 5,10%ga kamayishga erishilgan;

11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarni koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishga yuqori samarada tasir ko'rsatuvchi vositalarni saralash hamda yo'naltirish asosida takomillashtirilgan maxsus mashqlar majmuasini amaliyotda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Sportning qishki va murakkab texnik sport turlari bo'yicha Respublika Oliy sport mahorati mакtabini figurali uchish bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarining mashg'ulot va musobaqa jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2024-yil 23-apreldagi 03-16/4039-son Ma'lumotnomasi). Natijada, 11-12 yoshli figurali uchuvchi sportchilarning mashg'ulotlari metodikasi takomillashtirilgan va murakkab elementlarni bajarishi turg'unligi 13,6% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (OAK), (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, 137 sahifali matn, 25 ta rasm, 28 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarni ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini joriy qilinishi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, ishning tuzilishi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“11-12 yoshdagi figurali uchuvchilarining koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishdagi muammolarning o‘rganilganlik xolati va ularning metodologik asoslari”** nomli birinchi bobida, dunyoning turli davlatlarida va O‘zbekistonda figurali uchish sport turi bo‘yicha sportchilar tayyorlashning turli bosqichlari, qishki sport turlarida mikro va makrosikllarda tayyorgarlikni davriylashtirishning ilmiy pedagogik asoslari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

S.T.Baydun, V.I.Lyaxlarning ko‘p yillik tadqiqlarida figurali uchuvchilarini sport turiga yo‘naltirish va ularni har taraflama tayyorlash bo‘yicha bir qancha ilmiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash uslubiyatini joriy qilishgan. I.O.Cherapanova., A.N.Mishin., K.S.Dunayevlar uzoq yillik ilmiy izlanishlarida figurali uchuvchilarini tayyorlashda, funksional, jismoniy, texniktaktik, xoreografik, psixologik tayyorgarlik jarayonida qo‘llaniladigan vositalarni qo‘llash usullari hamda yuklamalarni taqsimlash me’yorlari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Psixologik N.I.Buchin, S.G.Seyranov, M.M.Ievleva kabi yetuk olimlarning ilmiy ishlarida berilgan psixologik yondashuvlarning turli uslublari samara berishi ta’kidlangan, turli sport turlari shu jumladan figurali uchuvchilarda sakrash, aylanish elementlarini bajarishda yuzaga keladigan fizilogik va vestibulyar apparati faoliyati bilan bog‘liq holatlarni D.D.Safarova, L.M.Volkova, A.A.Lomovlar tomonidan yoritib berilgan, A.K.Eshtayev, M.N.Umarov, D.R.Ishayev, Z.O‘.To‘ychiyev, S.A.Eshtayev, N.Y.Paxrudinova, E.S.Krayeva., L.A.Paxomova, xoreografiya va gimnastik mashqlarning figurali uchuvchilar tomonidan ijro etiladigan harakatlar uyg‘unligidagi o‘rni xususida nazariy asoslab bergen.

Xorijiy olimlari M.Novak, T.Rouvali, E.G.Paul, B.M.Milton, J.D.Vescovi, J.L.VanHeest, I.Varbanov, G.Brestnichkilar tomonidan har xil yoshdagi figurali uchuvchi sportchilarining koordinatsion qobiliyatini mashg‘ulot va musobaqa jarayonida rivojlantirish, koordinatsion qobiliyatning muhim tarkibiy qismlari haqida chuqur tushunchalarni shakllantirish, figurali uchish elementlarni bajarishda koordinatsion qobiliyatning ahamiyati va uni aniqlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlari natijasida yangi vosita va usullar ishlab chiqilgan.

Shuningdek yurtimizda qishki sport turlarini rivojlantirish yo‘lida figurali uchish sport turining ahamiyati va tutgan o‘rni xususida ma’lumotlar keltirilgan. Figurali uchish mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan vosita va usullar, kombinatsion aylanish, ko‘p burilishli sakrash, raqs qadamlari, xoreografik harakatlarni bajarish,

yuklamalar taqsimoti ularning bajarilish shiddati to‘g‘risida mahalliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari tahlil qilingan hamda ilmiy asosda yoritilgan.

Dissertasiyada “**Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning tashkil etilishi va uni olib borishda foydalanilgan uslublarga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda foydalanilgan har bir uslubning tasnifi va qo‘llanilish mexanizmlari tushuntirib o‘tilgan. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistika usullaridan foydalanilgan. Ishlab chiqilgan dastur va ularni amalga oshirish tartibiga muvofiq pedagogik tadqiqotlar Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti negizida amalga oshirildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida (2021-2022 yy). Ishning asosiy yo‘nalishini belgilab olindi. Tadqiqot muammosi bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarning nazariy tahlili, uni umumlashtirish amalga oshirildi. O‘quv faoliyatining pedagogik kuzatishlari, mutaxassislar bilan suhbatlar o‘tkazildi. Ishning maqsadi, ob'ekti va predmeti aniqlandi, tadqiqot gipotezasining asosiy qoidalari va mazmunidan kelib chiqadigan alohida vazifalar shakllantirildi, tadqiqot usullari tanlandi, tajriba tadqiqotni tashkil etish hamda o‘tkazish rejalashtirildi, eksperimental tadqiqot bazasi tanlandi. Tayyorgarlik bosqichida figurali uchuvchilarning mashg‘ulot faoliyati tahlili o‘tkazildi, koordinatsion va texnik ko‘rsatkichlarning namunaviy xarakteristikalarini aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda (2022-2023 yy). 11-12 yoshli figurali uchuvchilarni o‘quv-mashg‘ulot bosqichida koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish texnikasi asoslab berildi va ishlab chiqildi. Qiyosiy pedagogik tajriba o‘tkazildi, figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatiga kiritilgan usullar, shu jumladan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Colour circle” nazorat mashqi va “ForcePlaceSmart” Platform apparatida testlar sinovdan o‘tkazildi. Koordinatsiya qobiliyatlari, vestibulyar analizatorning texnik va laboratoriya sharoitida 11-12 yoshli 10 nafar figurali uchuvchi ustida tajriba olib borildi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida (2023-2024 yy). Tadqiqot natijalarini umumlashtirdik, tayyorgarlik bosqichida figurali uchuvchilarning ishlab chiqilgan koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usullari samaradorligini tasdiqlaydi; olingan ma'lumotlarga matematik va statistik ishlov berish amalga oshirildi va ularning birinchi bosqichda aniqlangan model belgilariga muvofiqligi taqqoslandi. Asosiy qoidalarni shakllantirish, tadqiqot ishlarini loyihalash amalga oshirildi. Xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning “**11-12-yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini o‘rganish bo‘yicha pedagogik tajribaning uslubiy asoslari**” nomli uchinchi bobida anketa so‘rovnomasini tahlillari, yillik mashg‘ulot soatlar taqsimoti, yillik mashg‘ulot yuklamalar tartiblash, haftalik soatlar taqsimoti, sakrab aylanish elementlarini bajarishdagi og‘ishlar aniqlash, kombinatsion aylanish elementlarini bajarishda muvozanat yo‘qolishini aniqlash testlarini tashkil qilish usullari yoritilgan.

Biz ishlab chiqqan metodologiya koordinatsiyani alohida o‘quv intizomiga ajratishni o‘z ichiga oladi. Figurali uchuvchilarning 1-yillik makrosikli uchun umumiy 866 soat belgilangan. Shundan Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) uchun ajratilgan 130 soatning 22 soati faqat koordinatsiyaga qaratilgan, Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) uchun 134 soatdan 22 soati, Maxsus texnik tayyorgarlik uchun yillik siklda ajratilgan soatlarning 256 soatdan 34 soati koordinatsiyani tayyorlash uchun, Muzda tayyorgarlik 244 soat va xoreografik tayyorgarlik 76, psixologik tayyorgarlik 26 soat bo‘lib o‘zgarishsiz holda qoldirildi. Umuman olganda, koordinatsiya darslariga ajratilgan vaqt 78 soatni tashkil qiladi. Figurali uchuvchilarni tayyorlashning yillik siklini davrlar va bosqichlar bo‘yicha taqsimlash 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlanadirishning yillik mashg‘ulot-soatlar taqsimoti

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning yillik mashg‘ulot jadvali oylar kesimida													Yillik umumiysi
Tayyorgarlik turlari													Yillik umumiysi
	7	8	9	10	11	12	1	2	3	4	5	6	
Davrlar	Tayyorgarlik						Musobaqa						O‘tish
UJT	20	20	20	18	18	2	2	2	2	2	2	0	108
Koor	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	0	22
MJT	20	20	14	14	12	4	6	6	6	6	4	0	112
Koor	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	0	22
MTT	14	14	14	18	18	24	24	24	24	24	24	0	222
Koor	2	2	2	2	2	4	4	4	4	4	4	0	34
MT	10	12	14	16	20	24	28	30	30	30	30	0	244
XT	6	6	10	10	10	6	6	6	6	6	4	0	76
PT	2	2	2	2	2	4	4	2	2	2	2	0	26
Jami:	78	80	80	84	86	72	78	78	78	78	74	0	866

Izoh1: Koordinatsion mashg‘ulot soatlari taqsimoti. (UJT-umumiy jismoniy tayyorgarlik, MJT-maxsus jismoniy tayyorgarlik, MTT-maxsus texnik tayyorgarlik, MT-Muzda tayyorgarlik, XT-xoreografik tayyorgarlik, PT-psixologik tayyorgarlik, Koor-koordinatsion tayyorgarlik).

Tadqiqotimizda biz o‘rganilayotgan faoliyatning model xususiyatlarini va tayyorgarlikning barcha jihatlarining tarkibiy o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga imkon beradigan tizimli va integral yondashuvdan foydalandik. O‘quv jarayoni sport mashg‘ulotlarining asosiy tamoyillariga rioya qilish, shuningdek, qo‘llaniladigan koordinatsion yuklamaning ta’sirini bosqichma-bosqich nazorat qilish va uning ko‘rsatkichlarining figuristlarning texnik tayyorgarligi bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan. Figurali uchish sport turi O‘zbekistonda endi jadallik bilan ommalashib, rivojlanayotganligini hisobga olgan holda, sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun erkin uchishga qaratilgan muz maydonlari kamligi, o‘quv mashg‘ulot rejali deyarli mavjud emas. Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida, biz tomonimizdan

figurali uchish sport turiga mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan haftalik reja ishlab chiqildi va amaliyatga joriy qilindi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval
11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishning yillik mashg‘ulotlarning haftalik soatlar taqsimoti


Tayyorgarlik davri						Umumiy	Musobaqa davri					Umumiy	O‘tish davri	Tayyorgarlik turlari
Oy	7	8	9	10	11		12	1	2	3	4	5	6	
Kun														
1	4	4	4	4	4	20	3	4	4	4	4	4	23	UJT
2	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
3	4	4	4	4	4	20	3	4	4	4	4	4	23	
4	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
5	4	4	4	4	4	20	4	4	4	4	4	4	24	
6	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
7	18	18	18	18	18	90	16	18	18	18	18	18	106	
8	4	4	4	4	4	20	3	4	4	4	4	4	23	MJT
9	2	4	4	4	4	18	2	2	2	2	2	2	12	
10	4	4	4	4	4	20	3	4	4	4	4	2	21	
11	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
12	4	4	4	4	4	20	4	4	4	4	4	4	24	
13	2	2	2	2	4	12	2	2	2	2	2	2	12	
14	18	20	20	20	22	100	16	18	18	18	18	16	104	
15	4	4	4	4	4	20	3	4	4	4	4	4	23	MTT
16	2	2	2	4	4	14	2	2	2	2	2	2	12	
17	4	4	4	4	4	20	4	4	4	4	4	4	24	
18	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
19	4	4	4	4	4	20	4	4	4	4	4	4	24	
20	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
21	18	18	18	20	20	94	17	18	18	18	18	18	107	
22	4	4	4	4	4	20	3	4	4	4	4	4	23	MT va XT
23	2	2	2	4	2	12	2	2	2	2	2	2	12	
24	4	4	4	4	4	20	4	4	4	4	4	4	24	
25	2	2	2	2	2	10	2	2	2	2	2	2	12	
26	4	4	4	4	4	20	4	4	4	4	4	2	22	
27	2	2	2	2	4	12	2	2	2	2	2	2	12	
28	18	18	18	20	20	94	17	18	18	18	18	16	105	
29	4	4	4	4	4	20	2	2	4	4	4	4	20	Ps.T
30	2	2	2	2	2	10	4	4	2	2	2	2	16	
	6	6	6	6	6	30	6	6	6	6	6	6	36	

	78	80	80	84	86	408	72	78	78	78	78	74	458		
--	----	----	----	----	----	-----	----	----	----	----	----	----	-----	--	--

Izoh-2: haftalik mashg‘ulotlar tayyorgarlik turlarining birlikda qo‘llanilishi.

Yillik mashg‘ulot yuklamalarini aniq va shaffof bo‘lishini ko‘zlagan holda haftalik sikllarda har bir davr uchun soatlar taqsimotini shakllantirishga qaror qilindi. Shundan 5-oylik tayyorgarlik davri uchun umumiyligi 408 soat ajratilgan bo‘lib, har oyning birinchi haftaligiga 18 soatdan mashg‘ulot, ikkinchi haftaliklarning birinchi oyida o‘zgarish yo‘q va 2,3,4 oylar uchun 20 soatdan, 5 oyda bo‘lsa 22 soat haftasiga mashg‘ulot taqsimlandi. Uchinchi va to‘rtinchi haftaliklar uchun 1,2,3-oy yuklamalari avvalgi taqsimot bo‘yicha qoldi ammo musobaqaga yaqin oylar ekani hisobga olinib 4,5-oylarda 20 soatdan haftalik shug‘ullanish belgilandi. Musobaqa davrida barcha oylar uchun umumiyligi yuklama taqsimotida 458 soat bo‘lib, raqobatning 1-oyidagi 1,2 haftaliklar uchun 16 soat, 3,4 haftaligida 17 soatdan, qolgan 5 oyning barcha haftaligi uchun 16-18 soatdan mashg‘ulot yuklamalari bajarilgan.

Taqsimlangan haftalik mashg‘ulot yuklamalarida pushti rangda umumiyligi jismoniy tayyorgarlik (UJT) yil davomida 138 soat, yashil rangda maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) 136 soat, malla rangda maxsus texnik tayyorgarlik (MTT) 162 soat, ko‘k rangda muzda va xoreografik tayyorgarlik (MT va XT) 404 soat hamda sariq rangda psixologik tayyorgarlik (PT) 26 soatni tashkil etib, tayyorgarlik turlari bo‘yicha har kunlik vaqt me’yorlarida yoritib berilgan.




1-rasm. 11-12 yoshli figurali uchuvchilarini koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishning yillik mashg‘ulot yuklamalar taqsimoti

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishning yillik mashg‘ulotlarida tayyorgarlik davrlaridagi oylar kesimida

vosita va usullar me'yorlarini rejalaشتirdik. Mashg'ulot davomida kompleks mashqlardan foydalanish uslubiyatini ishlab chiqdik. Tayyorgarlik davrida tayyorlov turlarini me'yorlarini ishlab chiqib, mashg'ulot davomida qo'llash orqali figurali uchuvchilarni koordinatsion qobiliyatlarini hamda texnik harakatlar mexanizmini takomillashtirishga erishildi.

“ForcePlaceSmart” Platform labaratoriya anjomida to'rtta kuch platformalaridan signallarni avtomatik ravishda, tenzo datchiklari orqali kuch platformasidan kelgan ma'lumotlarni yig'ib, qayta ishlaydi va birlashtirishi orqali sakrab aylanganda sportchining oyoqlaridagi og'ishlar X-o'ng-chap yoki Y-orqa oldinga kuchlanishini ko'rsatib, Z-bosim qaysi darajada ekanligini rangli egri chiziqlar yordamida aniq baholab berishi natijasida, 11-12 yoshli figurali uchuvchilarning “Axel, Salxov, Ritberger, Tulup, Flip, Lutz” sakrab aylanish elementlari bajarish natijalarini aniqlash vaqtida uchish va qo'nish burchagidagi og'ishlar aniqlandi. (1-rasmda keltirilgan).



2-rasm (ForcePlaceSmart platform)

Aksariyat sinaluvchilar sakrashga kirish bosqichida gavdani yig'ish (grupirovka) holatiga ahamiyat bermagan holatda bo'lgan va qo'nish joyi har xil og'ishlarda qayd etilgan. Tajriba davomida koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan mashg'ulotlar qo'llanilgandan so'ng oxirgi natijalar tekshirilgan va xuddi shu o'lchamda sinaluvchilarda test sinovlari olib borilganda figurali uchuvchilarning sakrash, uchish va qo'nishdagi og'ish burchaklari markazga sezilarli darajada yaqinlashganlik grafiklar orqali aniqlandi. (2-rasmda keltirilgan).

11-12 yoshli figurali uchuvchilarning aylanish elementlarini bajarishda yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlash uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “colour

circle” testidan foydalanish jarayonida harakatni bajarish so‘ngida turg‘un holatning yo‘qolishi bilan bir qatorda vestibulyar apparatining qay darajada ekanligi aniqlashga erishildi.(3- rasmda ko‘rinishingiz mumkin).



3-rasm “Colour circle” nazorat mashqi.

Izoh-3: Rangli aylanalarning har birining oralig‘i 20 sm qilib belgilangan va 100 ballik sistemada markazdan teskari tomonga qarab baholash qabul qilingan. Jami 5 ta rang markazada to‘rtburchak oq rang (oyoq izi), yashil, sariq, ko‘k va qizil rangli aylanalar ketma-ket joylashtirilgan. Bu tartibda joylashtirish figurali uchuvchilarga psixologik yondashish usuliga urg‘u berilgan.

Quyidagi formula orqali hisoblash ishlari olib borilgan: Ball=100-S (Bu yerda sportchi aylanib to‘xtaganda oyog‘ining markazdan uzoqligi santimetr (sm) larda hisoblanadi.) Testni qabul qilish quyidagicha olib borildi: har bir sinaluvchi ko‘z ochiq va yumiq holatda o‘ng-chap yelkalar bilan 10-15 marta banner markazida aylanishni bajardi, “to‘xtash” signali bilan qo‘llar yonga yoyilgan holatda muvozanat saqlashdi. Testni bajarayotganda sinaluvchining ikki qo‘li pastda, boshi tizzaga yaqin holatda egilgan, imkon qadar tezlik bilan aylanish talab qilindi.

